



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*

к договору (контракту) от 27.01.2022 г. № JSh/111

между ИИБ хузуридаги куриклаш бошкармаси и Вобкент туман тиббиёт бирлашмаси на общую сумму
7511748,00

Глава

054

Казначейский лицевой счёт

400322860062127073101054001

(в суммах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4293000			
Январь	7 511 748,00			7 511 748,00
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	7 511 748,00			7 511 748,00

Всего 7511748,00 сум

Семь миллионов пятьсот одиннадцать тысяч семьсот сорок
восемь сум 00 тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 7511748,00 сум или 100,00%*** от общей суммы договора
подлежат предоплате в Январь мес. 2022 г.

Руководитель заказчика



Главный бухгалтер заказчика

Принял работник казначейского
подразделения

(подпись)

«__» _____ 20__ г.

(подпись)

Ражабов Шухрат Жўрабоевич

Ф.И.О.

(подпись)

Нарзуллоев Фаррух Халимович

Ф.И.О.

Получил работник
заказчика

(подпись)

«__» _____ 20__ г.

**Obyektni Texnik qo'riqlash markazi (TQM) orqali
qo'riqlash shartnomasi.**

« 27 »yanvar 2022 yil.

JSh/111-son

Buxoro shaxri.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizomi asosida faoliyat yurituvchi, boshqarma boshlig'i **Sh.A.Jumayev** (keyingi o'rinlarda «**Ijrochi**» deb yuritiladi) bir tomondan, Vobkent tumani Tibbiyot birlashmasi nomidan (o'zining Nizom Ustav Buyrug'i) asosida faoliyat yurituvchi **J.Sh.Rajabov** (keyingi o'rinlarda «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I bob. Shartnoma predmeti

1. Ijrochi texnik qo'riqlash markazi (TQM), mulkini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, **Buyurtmachi** esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II bob. Umumiy shartlar

2. Buyurtmachi. Vobkent tumani Shifokor ko'chasida joylashgan Tibbiyot birlashmasi tasarrufida bo'lgan Vobkent TTB shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limi, shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limi dorixonasi, asosiy dorixonasi, o'riqlashga topshiradi, **Ijrochi** esa ushbu obyektlarni **TQMga** ish kunlari, dam olish oldi kunlari va dam olish kunlari 6 soatdan (soat 09:00 dan 15:00 gacha), **TQM va Tashvish** tugma orqali qo'riqlash uchun qabul qiladi.

3. Obyektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash **Buyurtmachi** tomonidan amalga oshiriladi. Obyektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Obyektning texnik mustahkamligi to'g'risidagi, qo'riqlash va yong'indan ogohlantiruvchi texnik (QYOOS) vositalari bilan jihozlangan joylar, kod bilan mahkamlanadigan moslamalar va boshqa ma'lumotlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilova va tekshiruv dalolatnomasida ko'rsatiladi.

III bob. To'lovlarni amalga oshirish.

5. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

A) Shartnomaning umumiy baxosi **7 511 748** (Etti million besh yuz o'n bir ming yetti yuz qirq sakkiz) so'mni tashkil qiladi. Qo'riqlash xizmati uchun hisob-kitoblar, mazkur shartnomaning grafigi asosida byudjetdan va byudjetdan tashqari ajratilgan mablag'lar asosida to'lanadi.

2022 yil	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Novabr	Dekabr
Jami:	3 755 874	3 755 874										
7 511 748												

5.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shartnoma "to'g'ridan-to'g'ri" ro'yxatdan o'tkaziladigan shartnomalar turiga kirib, Byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikdan ro'yxatga olinishi shartligi belgilangan bo'lib, Shartnomani elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazish «**Buyurtmachi**»ning zimmasiga yuklanib, tomonlar o'rtasida imzolanib, elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazilgach kuchga kiradi.

6. Ijrochining xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

7. Buyurtmachi ko'rsatilgan xizmatlar uchun oylik to'lovning **100 foizi** miqdoridagi avans to'lovini, keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin amalga oshiradi.

8. Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 5-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni (avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, **Ijrochi, Buyurtmachiga** akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

9. Mazkur Shartnoma bekor qilinganda hamda har oyning yakuni bilan, **Ijrochi Buyurtmachi** bilan olib borilgan to'lovlar bo'yicha, qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur (ya'ni taqqoslash dalolatnomasi tuzilishi).

IV bob. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

10. «Buyurtmachi» ning huquq va majburiyatlari.

a) Obyektni TQM orqali qo'riqqa topshirish uchun, soz holdagi telefon tarmog'ini ajratadi.

b) «Ijrochi»ga topshiriladigan obyektni texnik mustahkamligini ta'minlash maqsadida, tekshiruv dalolatnomasi bo'yicha uni me'yoriy talablar asosida jihozlaydi.

- v) Obyektни «Ijrochi»ga topshirish va qabul qilish, kalitlarni saqlash va obyektни ochib ko'zdan kechirish uchun javobgar shaxsni tayinlaydi.
- g) Obyektning kaliti yo'qolganida uni boshqasiga almashtirganida yoki uning butligi buzilganligini aniqlaganida, zudlik bilan «Ijrochi»ga xabar beradi.
- d) Begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tizimini va pult raqamini o'zlashtirmasligi uchun ularni oshkor qilmaydi.
- e) qo'riqlash signalizatsiya vositalaridan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qiladi, obyektни blokirovka sxemasiga o'zgartirishlar kiritmaydi, o'z ixtiyori bilan signalizatsiya vositalarini almashtirmaydi, «ijrochi» ni yuzaga kelgan kamchiliklar yuzasidan o'z vaqtida xabardor qiladi.
- j) Obyektни «Ijrochi»ga topshirishdan oldin eshik, deraza, tuynuklarni mahkamlaydi, ularni doimiy ravishda soz holda saqlanishini ta'minlaydi.
- z) Obyektidagi QYOOS vositalari ishdan chiqqanida yoki foydalanish muddati o'tganida ularni qayta ta'mirlash uchun, TQMni modernizatsiyalashtirilgan qo'riqlash sistemasiga o'tkazilishi munosabati bilan obyektни zamonaviy QYOOS vositalari bilan almashtirish ishlarini o'z hisobidan amalga oshiradi.
- i) QYOOS vositalari ulangan elektr va telefon tarmoqlarini o'z vaqtida ta'mirlash choralari ko'radi.
- y) Obyektни mazkur shartnomada ko'rsatilgan tartibda oldindan va o'z muddatida TQM kuzatuviga topshiradi.
- k) qo'riqlanayotgan obyekt va uning perimetrini kerakli yoritish moslamalari bilan jihozlab, TQM naryadlariga tungi paytda mumkin darajada qo'rinishni ta'minlaydi.
- l) qo'riqlanadigan obyektни toifasiga qarab devori, tomi, derazalari va eshiklarini texnik jihatdan mustahkamligini ta'minlaydi.
- m) qo'riqlanadigan obyektда yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilib, o'z hisobidan yong'in xavfsizligi burchagini tashkil qiladi va obyektда yong'in xavfsizligi bo'yicha javobgar shaxs tayinlaydi.
- n) Har chorakda tomonlarning mas'ul vakillari ishtirokida obyektning texnik mustahkamligi, QYOOS vositalari bilan jihozlanganligini tekshirilib, dalolatnoma tuziladi, tekshiruv jarayonida aniqlangan kamchiliklarni «Buyurtmachi» belgilangan muddatida bartaraf qilib, «Ijrochi»ga axborot beradi. Mazkur dalolatnoma shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- o) Obyektни qo'riqlanishini takomillashtirish, moddiy-tovar boyliklarni saqlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi va «Ijrochi»ga o'zining vazifalarini ijro etishi uchun ko'maklashadi.
- p) Obyekt hududida ta'mirlash ishlari yoki uni ijruga topshirish, obyekt joyini o'zgartirish (o'sha ma'muriy binoning ichida), yangisini vujudga kelishi (o'sha ma'muriy binoning ichida), qo'shimcha QYOOS vositalari bilan jihozlanishi lozim bo'lgan taqdirda, «Ijrochi»ni 30 kun avval yozma ravishda ogohlantiradi.
- r) «Ijrochi» tomonidan vakolat berilmagan shaxslarga, QYOOS vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishga ruxsat bermaydi.
- s) Obyektни har kuni TQMga topshirishdan kamida 3 soat oldin QYOOS vositalarini sozligini, nazorat tariqasida tekshiradi, nosozlik aniqlanganda zudlik bilan xizmat ko'rsatadigan elektr ta'mirlovchini chaqiradi va bu borada «Ijrochi»ga xabar beradi.
- t) Obyektда ish vaqti tugaganidan so'ng, elektr moslamalar va boshqa yong'in o'choqlarini yoqib qo'yilishiga yo'l qo'ymaydi. Lozim bo'lganda, qo'riqlash uchun to'sqinlik qiladigan va uni zudlik bilan bartaraf qilish iloji bo'lmagan noxush holatlar mavjud bo'lsa, mulkning saqlanishi uchun to'liq javobgarlik o'z zimmasida qoladi.

11. «Ijrochichi» ning huquq va majburiyatlari.

- a) TQM qo'rig'iga topshiriladigan obyektning texnik mustahkamligini tekshirib, uning QYOOS vositalari bilan jihozlanishiga qarab dalolatnoma tuzadi.
- b) Obyektning xavfsizligi yuzasidan QYOOS vositalarini majburiy jihozlanish joyini belgilaydi.
- v) «Buyurtmachi»ga obyektning texnik mustahkam bo'lmagan joylariga QYOOS vositalari bilan jihozlashni taklif etadi, bu taklif «Buyurtmachi» tomonidan bajarilmagan taqdirda bu haqda dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- g) Obyektни «Buyurtmachi» hisobidan QYOOS vositalari bilan to'liq jihozlaydi, uning ishlashini Buyurtmachiga o'rgatadi, telefon aloqasi orqali pultga ulaydi va kerakli bo'lgan pult ma'lumotini taqdim etadi.
- d) O'rnatilgan tartibda obyektни qo'riqga olishda o'rnatilgan tartibda TQM ga ulanishi hamda o'z vaqtida THG naryadini tashvish xabari bo'yicha yetib borishini ta'minlaydi.
- e) Obyekt qo'riqda bo'lgan vaqtda obyektga kirgan shaxsning qo'lga olish chorasini ko'radi.
- j) Har bir tushgan soxta tashvish xabari bo'yicha dalolatnoma tuzadi, lozim bo'lganda «Buyurtmachi»ni chaqirib obyektни ochib ko'rikdan o'tkazadi va bu haqda dalolatnoma tuzadi, uning bir nusxasini «Buyurtmachi»ga beradi.
- z) qo'riqlash xizmati uchun olinadigan tariflar o'zgariganida «Buyurtmachi»ni xabardor qiladi.
- i) Mazkur shartnomani to'xtatish yoki bir tomonlama bekor qilinishi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:
- «Buyurtmachi» 2 oydan oshiq «qo'riqlash» xizmati uchun to'lovlarni to'lamaganligi;

-har qanday texnik nosozliklar, telefon raqami o'zgarganda, telefon o'chirilganda, TQM joyi o'zgarib ko'chirilganda;

- «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma 10-bandi shartlari bajarilmaganda;

- obyektning texnik mustahkamligi talabga javob bermaganda;

- Telefon o'chirilganda yoki nosoz bo'lgan holda, elektr manbai o'chirilganda, TQM joyi o'zgarganda, obyekt qo'riqqa kabul qilinmaydi, zudlik bilan bu to'g'risida «Buyurtmachi»ni yozma yoki telefon orqali xabardor etadi.

V bob. Tomonlarning javobgarligi.

12. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summaning **Buyurtmachi** tomonidan o'z vaqtida to'lanmaganligi holatida **Buyurtmachi Ijrochiga** har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning miqdori Shartnoma bahosining 50 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

13. **Ijrochining** xodimi postda turmaganligi uchun **Ijrochi Buyurtmachiga** bir kunlik qo'riqlash xizmati narxining 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14. **Ijrochi** mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida **Buyurtmachiga** yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi. Zararni qaytarish uchun, tergov yoki sud idoralarining ushbu holatlari yuzasidan chiqarilgan qarorlari asos bo'ladi.

15. quyidagi holatlarda yetkazilgan moddiy-zararlar uchun «qo'riqlash» javobgar hisoblanmaydi:

a) tabiiy ofatlar oqibatida keltirilgan mulkiy zararlar uchun;

b) o'g'irlik yoki bosqinchilik yo'li bilan amalga oshirilgan harakatlarda pul o'g'irlanishi, qo'riqlanayotgan xonalarda Buyurtmachi qoldirmasligi kerak bo'lgan, belgilangan summadan oshib ketuvchi pul vositalari qoldirilib ketganida, hamda pul vositalari polda o'rnatilgan seyf yoki metall jovonda saqlanmagan hollarda qo'rilangan hollarda;

v) Xo'jalik organini ishchilarining shaxsiy mulki qo'riqlanayotgan xonada qolib ketganida;

g) jinoyatchi tomonidan qo'riqlanayotgan xona ichida keltirilgan zarar uchun, agarda bunda jinoyatchi ushbu xonaga uni yopilishidan oldin kirgan bo'lsa va xonani qo'riqlanmaydigan vaqtda tark etgan bo'lsa;

d) pul boyliklarni belgilangan joyda saqlanmagan holatlarda ularni ug'irlash yoki tajovuz sodir bo'lganda,

e) «Buyurtmachi» tomonidan signalizatsiya vositalari belgilangan vaqtda ishga tushirilmaganligi, obyektning qo'riqlashga topshirilmaganligi, yoki signalizatsiyaning nosozligi haqida «qo'riqlash»ga xabar berilmaganligi natijasida o'g'irlash, bosqinchilik yoki tajovuz yo'li bilan tovar-moddiy boyliklarga ziyon yetkazilganda,

y) ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomada qo'riqlanayotgan obyektning texnik mustahkamligini oshirish bo'yicha talablar bajarilmasligi natijasida, tovar-moddiy boyliklarni o'g'irlanishiga sharoit yaratilganda.

VI bob. Nizolarni hal qilish tartibi.

16. Mazkur Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilishda vujudga keladigan nizolar, kelishmovchilik va tortishuvlar ikki tomonlama kelishuvlar yo'li bilan hal etiladi, agarda o'zaro kelishuvlar yo'li bilan ular hal etilmasa, o'rnatilgan tartibda Hududiy Iqtisodiy sudiga beriladi.

VII-bob. Fors-major.

17. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

18. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

19. Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

20. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaz kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

VIII bob. Yakuniy qoidalar.

21. Mazkur Shartnoma **Buyurtmachi** tomonidan tekshirish dalolatnomasida ko'zda tutilgan barcha takliflar va tavsiyalar bajarilib, tomonlar imzolangan keyin 2022 yilning 27-yanvar kunidan kuchga kiradi. Mazkur shartnomaning 2022 yilning 31-dekabr kunigacha amal qiladi.

22. G'aznachilikdan ro'yxatga olinishi shartligi va faqat g'aznachilik tomonidan tasdiqlangandan so'ng amalga oshiriladi. Shartnoma elektron shaklda onlayn ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

23. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda **Buyurtmachi** va **Ijrochining** vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

24. **Buyurtmachi** obyektni qo'riqlashni rad qilish yoki mazkur Shartnomani bekor qilish (**bir yil muddat to'liq o'tgandan so'ng**) to'g'risida **Ijrochiga bir oy** oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.

25. **Buyurtmachi** mazkur Shartnomani bekor qilish haqida **Ijrochiga** Shartnoma muddati tugashidan **30 kun** oldin ma'lum qilmasa, xuddi shu shartlarda mazkur **shartnoma muddati yana bir yilga uzaytirilgan** hisoblanadi.

26. **Buyurtmachi** shartnomani muddati tugashidan oldin voz kechsa, **Buyurtmachi** uch kun muddat ichida qo'riqlash xizmatlarini bekor qilishga bog'liq xarajatlarni qoplash uchun "qo'riqlash"ning hisob raqamiga mablag' o'tkazadi.

27. Obyektning xususiyatidan kelib chiqib **Tomonlar** mazkur Shartnomaga, qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

IX-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

«I J R O Ch I»

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi
Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarma.

Manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 10-uy

H.R. 21 596 000 203 976 980 001

MFO: 00017 **INN:** 202 623 032

Bank nomi: Markaziy bank Buxoro viloyati boshqarma.

Boshqarma boshlig'i

Sh.A.Jumayev

Xiz. tel: 221-30-10; 221-30-11

Boshqarma MIB boshlig'i

N.I.Sa'dullayev

Boshqarma YuG bosh yuriskonsulti

M.U.Suvonov

«B U Y U R T M A C H I»

Vobkent tuman Tibbiyot birlashmasi

Manzili:

Tadbiqkor 50A

H.R: 40032286006212707310105400

MFO: 00014 **INN:** 201408290

Buxoro viloyati buyicha G'aznachilik
boshqarmasi

X.r.

Bank nomi: Markaziy bank

MFO: 00014 **STIR:** 20122819

Vobkent tuman Tibbiyot birlashmasi
raxbari.

J.Sh.Rajabov.

Bosh hisobchi

Huquqshunos

**Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiqligi
to'g'risida huquqiy xulosa**

1. Loyi haning turi: Shartnoma

2. Loyi haning nomi:

Vobkent tuman Tibbiyot birlashmasi va Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi o'rtasida tuzilgan 7511748 so'mlik qo'riqlash xizmatini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Mazkur shartnoma Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 27-yanvarda markazga taqdim etilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuristkonsulti
27.01.2022 yil.



B.G'aybullayev